

YOSHLARNING HOZIRGI KUNDAGI MUAMMOLARI VA ULARGA YECHIMLAR

Yuldashev Ulug‘bek Raximjonovich
Abituriyent, Xalqaro Islom Akademiyasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bugungi kunda yoshlar duch kelayotgan asosiy muammolar, jumladan, ta’lim sifati, ishsizlik, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri kabi masalalar tahlil qilinadi. Ushbu muammolarga ilmiy va amaliy yechimlar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, muammolar, ta’lim, ishsizlik, internet, kasb-hunar, raqamli savodxonlik.*

KIRISH

“Yoshlar – kelajagimiz” degan ibora bugungi kunda juda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Alisher Navoiy: “Haqiqiy boylik ilm va hunardadir” deganidek, bugungi yoshlarning asosiy vazifasi ilm olish va jamiyatga foydali bo‘lishdir. Biroq, XXI asr yoshlari ko‘plab muammolar bilan yuzlashmoqda. Ularga ta’lim sifati, ishsizlik, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri kiradi. Ushbu maqolada mazkur muammolar va ularning mumkin bo‘lgan yechimlari haqida so‘z yuritiladi.

1. Ta’lim sifati va uning muammolari

Hozirgi ta’lim tizimi umumiy bilim berishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ko‘plab fanlar o‘quvchilarning qiziqishlari va kelajakdagi rejalar bilan to‘g‘ri kelmaydi. Bu esa o‘quvchilarni ortiqcha yuklama ostida qoldirib, bilimning samaradorligini pasaytiradi.

Shu sababli, maktablarda ayrim fanlarni qayta ko‘rib chiqish, ortiqcha mavzularni qisqartirish va asosiy e’tiborni sohaviy ta’limga yo‘naltirish lozim. 5-sinfdan boshlab o‘quvchilarning qiziqishlari va imkoniyatlariga qarab ularni yo‘naltirish tizimini joriy etish zarur. Misol uchun:

- Texnikaga qiziqadigan o‘quvchilar uchun matematika, fizika, zamonaviy IT fanlarini chuqurroq o‘rgatish.
- Gumanitar fanlarga qiziqqan o‘quvchilar uchun esa ona tili va adabiyot, tarix, xorijiy tillarni chuqur o‘rgatishga e’tibor qaratish.

2. Ishsizlik va moliyaviy mustaqillik muammosi

Ko‘plab ishsiz yoshlarga davlat miqyosida e’tiborni kuchaytirish kerak. Ularni kerakli kasblarga yo‘naltirish uchun o‘qish xarajatlarini qoplash zarur. Chunki bu yoshlar o‘zlari ishsiz, moliyaviy yordam esa ularga yangi yo‘nalishni o‘rganishga turtki bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalariga har yili 1 million abituriyent topshiradi, ulardan esa 20 foizi ham o‘qishga kira olmaydi, bu degani 800 ming yosh kerakli ish yoki ilmiy tajribaga muhtoj qatlama sifatida qolib ketadi. Agar shu yoshlarga yana boshqa imkoniyatlar, masalan, o‘zlari qiziqqan sohalarga bepul o‘qitish yoki kredit-modul asosida kasbga yo‘naltirish tizimi yaratilsa, bu muammoning oldi olinadi.

3. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri

Internetdan foydalanish hozirgi zamoning ajralmas ehtiyoji bo‘lib, u yoshlar uchun ham foyda, ham zarar keltirishi mumkin. Uning foydali jihatlari orasida:

- Ilm olish va o‘z ustida ishlash imkoniyati.
- Onlayn darslar va xalqaro ma’lumotlarga erkin kirish.
- Dunyo bo‘ylab bilim va tajriba almashish.

Biroq, salbiy jihatlari ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Hozirgi kunda ko‘plab yoshlar, ayniqsa o‘quvchilar va talabalar, o‘qish va dars qilish o‘rniga ijtimoiy tarmoqlarda 5-6 soatlab vaqtini bekorga sarflamoqda.

Yechim

- Yoshlarni internetdan samarali foydalanishga yo‘naltirish uchun maktab va oliy ta’lim muassasalarida muntazam seminar va treninglar tashkil etish.
- Ota-onanazoratini kuchaytirish.
- Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog‘lanib qolishini oldini olish uchun vaqt boshqaruvi bo‘yicha maxsus dasturlar, mobil ilovalar va nazorat tizimlarini joriy qilish.
- Yoshlar orasida ilmiy, madaniy va tarbiyaviy kontentni targ‘ib qiluvchi loyihalarni rivojlantirish.

XULOSA

Yuqoridagi muammolar yoshlar hayotiga jiddiy ta’sir qilmoqda. Ularni hal qilish uchun ta’limni modernizatsiya qilish, ishsizlikka qarshi kurashish va internetdan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirish muhimdir. Agar bu masalalar ijobiy hal etilsa, yoshlarning kelajagi yanada porloq bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bilimni baholash agentligi rasmiy sahifasi.
2. Jamoatchilik fikri – Ijtimoiy tarmoqlardagi muhokamalar.
3. Chet el tajribasidan kelib chiqib – Rivojlangan mamlakatlar tajribasi.
4. Alisher Navoiy asarlari – “Mahbub ul-qulub” asaridan: “Haqiqiy boylik ilm va hunardadir”.